



ANDIJON OLIMPIYA ZAXIRALARI KOLLEJIDA SPORT BILAN SHUGULLANAYOTGAN O'SMIR QIZLARINING SALOMATLIK KO'RSATKICHI HAMDA JISMONIY RIVOJLANISHI

Akbarova G.X., Nazarova G.U.

Andijon davlat tibbiyot instituti

Andijon, O'zbekiston

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda yoshlar o'rtasida "Sport" ga qiziqish kun sayin ortib bormoqda, ayniqsa qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqalar va ularning erishayotgan yutuqlari nafaqat yurtimizda balki ularning butun jaxon marralarni zabt etishlari bunga isbotdir. Shuning uchun Yurt boshimizning yoshlar salomatligiga bo'lgan e'tibor kuchaytirilgan. "Salomatlik" ko'rsatkichi bo'yicha bir nechta ta'riflar mavjud bo'lib, har biri o'z ko'rsatkichi bo'yicha to'g'ri. JSST ta'rifi bo'yicha "Salomatlik" kasallik va jismoniy kamchilik emas, balki bu shunday holatki bunday inson jismonan, ruhan va ijtimoiy jihatdan manan yetuk bo'lishi lozim.

Tadqiqot maqsadi.

Tadqiqot materiallari va usullari. "Salomatlik" ko'rsatkichlarni baholashda eng kamida to'rtta ko'rsatkichni baholashni taklif etadi tekshirish paytida surunkali kasalliklarning bor yoki yo'qligi, jismoniy va aqliy ruhiy gormonal rivojlanish darajasi, antropometriya (jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash), usmir qizlar organizmini organlarini funksional darajasi, nojo'ya ta'sirlarga organizmni qarshilik ko'rsatish darajasi.

Bu ko'rsatkich amaliyotda o'z tasdig'ini topdi va hozirda davolash va profilaktika muassasalarida ishlatilib kelinmoqda. O'smir qizlarni dispanser nazorat qilishda, AOZSK va maktablarda o'kuvchilarni sistematik rejali ko'ruv paytida, Oila shifokorlari, sport shifokori va mutaxassislar ishtirokida tibbiy ko'rik paytida (ginekolog, okulist, otolaringolog, jarroh, ortoped, nevropatolog va b.q.), avvalam bor ularda surunkali kasalliklar bor-yo'qligiga e'tibor qaratiladi. Organlar va sistemaning funksional holatini klinik usullar bilan funksional sinamalar yordamida aniqlaniladi. Organizmning qarshilik ko'rsatish darajasini o'tkir kasalliklar bilan kasallanish va surunkali kasalliklarning qaytalanish darajasiga qarab baholanadi.

Tadqiqot natijalari. Organlar morfofunktsional o'zgarishlarining normaga nisbatan o'zgarishini skrining tekshirishda aniqlash tibbiy ko'rik samarasini yanada oshiradi. Eng samarali natija beradigan skrining-testalar: Sivseva – Golovina jadvali orqali ko'ruv o'tkirligini aniqlash; Plantografiya yassi tovonni aniqlash usuli; So'rovnomalar orqali bolalar va o'smirlar o'rtasida keng tarqalgan kasalliklarni boshlang'ich belgilarini aniqlash usuli orqali (aqliy ruxiy kasalliklar, oshqozon – ichak va siydik yo'llari tomonidan buzilishlar, allergik reaksiyalarni yuzaga kelishi, kamqonlik, balog'at yoshdagi qizlarda gormonal o'zgarishlar va boshqalar) aniqlanadi va vaqtida davolanib kasalliklarni oldi olinadi. Tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra 110 ta tekshiruv olib borilgan o'smir qizlardan: 40% oshqozon ichak sistemasida o'zgarishlar, 20 % siydik yullari kasalliklari, 10% yurak – qon tomir kasalligi, 30 % gormonol o'zgarishlar aniqlangan.

Xulosa. Sportchilarni mashg'ulotdan oldingi va keyingi holatiga baho berilib, jismoniy zo'riqish xisobiga ulardagi o'zgarishlar o'rganiladi. O'smir qizlarni yoshga nisbatan rivojlanishi, jismoniy va aqliy ruhiy kasalliklarni, tayanch -xarakat tizimidagi o'zgarishlarni baholash; Qizlarda menstrual faoliyatini baholash testi; Diqqatni buzilishi giperaktivlik bilan tashxislash testi. Skrining tekshirish usullarini o'sish rivojlanish davrining eng kritik davrlarida qo'llash (11,13, 15, 17 yosh), bola organizmi noturg'un davrida bo'lib tashqi muhit omillariga o'ta ta'sirchan bo'lib kasalliklar rivojlanishiga juda moyil bo'ladi bu usul kasallikkacha tashxislashning samarali usuli bo'lib hisoblanadi.